


SHARQ MASH'ALI

A decorative geometric pattern in the bottom-left corner, featuring interlocking star and floral shapes in white, blue, and orange on a dark green background.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

2
2024



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:

G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh
muharrir o'rinbosari)

X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

A. MANNONOV (prof., f.f.d.)

Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)

R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)

SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)

Q. OMONOV (prof., f.f.d.)

U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)

D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)

X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)

B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)

A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)

M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)

X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)

D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha

PhD)

SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)

N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)

A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)

R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)

I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)

R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)

E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)

A. SHONAZAROVA (AQSHning

Kolumbiya univ. prof.)

G. GLIZON (AQSHning New Mexico

univ. prof.)

ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba

univ. prof.)

LI DJI IN (Koreya Respublikasining

Xankuk chet tillar univ. prof.)

V. MESAMED (Isroilning Quddus univ.

prof.)

A. GURER (Turkiyaning Anqara univ.

prof.)

A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar
akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta
ilmiy xodimi)

G. AVDA (Misr Arab Respublikasining
Xelvon univ. prof.)

A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining
"Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi
direktori)

S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)

H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk
univ. prof.)

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 2, 2024-yil

Adabiyotshunoslik

Eshmuhammedova M. Shoir Mushkinning chop etilmay qolgan she'rlari.....	3
Саудова Н. Трансформация реалистического метода повествования в саудовской новеллистике	11
Sulaymonova H. O'zbek va arab adabiyotida epistolyar janrlar tarixining qiyosiy tadqiqi	21
Nazarova A. Afg'oniston qarshilik she'riyati va Partav Nodiriy ijodi	29
Murtazaxodjayeveva M. Pavlayi va Anna Karenina: tutash taqdirlar.....	38
Абдуганиева Н. Проявление ислама в литературе и культуре индонезии.....	46

Tilshunoslik

Sodiqov Q. «Devonu lug'ati-t-turk» matnidagi harakat belgilari va turkiy so'zlarning o'qilishi masalasi	52
Исламджанова Х, Замалеева Э. К проблеме статуса наречия как особой части речи в современном пашто	61
Begmatova B., Shakirova Z. Ism so'z turkumini turlanishiga ta'sir qiluvchi omil turlar (Sayyid Sharif Jurjoniyning "Nahvi Mir" asari misolida)	69
Азимджанова Д., Азизходжаева К. Структурно-семантический - анализ дипломатической лексики современного персидского языка	78
Umarova M. Tarjimashunoslik maktablarida "Milliy kolorit" tushunchasining ilmiy tavsifi ...	85
G'iyosov B. Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta'lim shiorlarining leksik-semantik tahlili.....	93
Berdiyev U. Madaniy kontseptlar: til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik	106
Ахмедова С. Теоретические основы изучения концепта "любви"	114



Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnal original-maket asosida bosildi. Sharq mash'ali, 2023 yil 1-son. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.	<i>Tarix</i>	Худайбердиев А. Идеология движения «Ансару Аллах» 122 Abdullayev U. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi muhoraba avvalida Yaqin Sharqdagi xalqaro vaziyat 127 Axmedov S. Temuriylar davri Renessansini o'rganishga mo'ljallangan davr manbalari tahlili. 134 Zokirov B. XIX asr O'rta Osiyo xonliklari toponimik qatlamida turkiy etnonim bilan bog'liq joy nomlari..... 142
	<i>Tashqi siyosat</i>	Турдиева Д. Роль и значение религиозного фактора в социально-политической жизни Малайзии в XX-XXI веке 150 Ahmadxojayev M. Siyosiy lider faoliyatida Saylov oldi imijmeyking usullari 163 Abduraimova Sh. Raqamli asr davrida konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash: islom.uz sayti mediakontentlarida bag'rikenglik masalalari 171 Тилаволдиев А. Платформа «с5+1» как важный инструмент внешнеполитической стратегии США в центральной азии 178
	<i>Intervyu</i>	Mannonov A. Профессор Шарый Жўзжоний . 189





XIX ASR O'RTA OSIYO XONLIKLARI TOPONIMIK QATLAMIDA TURKIY ETNONIM BILAN BOG'LIQ JOY NOMLARI

ZOKIROV BEXZODJON

O'qituvchi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

Аннотасија: Mazkur maqolada XIX asrda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus va xorij sayyohlari hamda davlatlarning rasmiy vakillari safar xotiralari asosida yaratilgan "safarnomalar"da uchraydigan mintaqada yashovchi turkiy xalqlar nomi bilan bog'liq etnotoponimlar tasnif va tahlil qilingan. Bizga ma'lumki, etnotoponimlar "etnos" bilan aloqador joy nomlari bo'lib, ular ma'lum hududning aholisi tarkibi hamda ular bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, shuningdek, an'ana va qadriyatlarni o'zida namoyon qiladi.

Etnotoponimlarni ma'lum manbalar asosida qiyosiy tahlil qilish, tegishli hudud aholisining etnik tarkibi, demografik jarayonlari va ularga ta'sir qilgan omillarni ko'rsatib beradi. Ayni paytda bunday turdagi joy nomlarini manbashunoslik hamda tarixshunoslik aspektida ko'rib chiqish, joy nomlarini o'rganish sohasi tarixiy toponimiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada ochib berish rejalashtirilgan O'rta Osiyo xonliklariga tashrif buyurgan rus va xorij sayyohlarining safarnomalari asosida xonliklardagi turkiy etnonimlar bilan bog'liq joy nomlarini tadqiq etish mahalliy manbalarda qayd etilmagan ayrim bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi, ko'rsatilgan davrdagi safarnomalardagi turkiy etnonim bilan bog'liq joy nomlarining Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari aholisining etnik tarkibini o'rganishdagi manbaviy ahamiyatini e'tirof etish, hududiy identikligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Maqolada tarixiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan tizimli tahlil, davrlashtirish, muammoviy-xronologik, shuningdek, toponimik tadqiqotlarda qo'llaniladigan joy nomlarini toponimik qatlamlashtirish, genetik analiz kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijasida safarnomalarning umumiy manba sifatidagi o'rni va ulardagi turkiy etnotoponimlarning o'zbek xonliklarining etnik tarixini o'rganishdagi nazariy-amaliy jihatlari tahlil qilindi.

Калит so'zlar: turkiy xalqlar, etnonim, etnotoponim, etnogidronim, nisbiy negativlik, yop, dam.

Аннотация: В данной статье классифицируются и анализируются этнотопонимы, связанные с названиями тюркских народов, проживающих в регионе, в «путевых книгах», созданных на основе путевых воспоминаний российских и иностранных туристов и официальных представителей государств, посетивших Среднюю Азию в XIX веке. Как известно, этнотопонимы – это топонимы, относящиеся к «этносу», которые представляют собой состав населения определенной местности и связанные с ними социально-экономические процессы, а также традиции и ценности.

Сравнительный анализ этнотопонимов на основе определенных источников показывает этнический состав населения соответствующей местности, демографические процессы и факторы, влияющие на них. На данный момент рассмотрение таких топонимов с позиций источниковедения и историографии, изучения топонимов является одним из актуальных вопросов исторической топонимики. С этой точки зрения исследование топонимии, связанной с тюркскими этнонимами в ханствах на основе рассказов о путешествиях российских и иностранных туристов, посетивших среднеазиатские ханства, которое планируется выявить в данной статье, служит восполнению некоторых пробелов, которые в местных источниках не зафиксировано.

Основная цель исследования - признать исходное значение топонимов, родственных тюркскому этнониму, в травелогах указанного периода при изучении этнического состава населения Бухарского эмирата, Хивинского и Коканского ханств, определить их территориальную принадлежность и их место в социально-экономической жизни.

В статье использованы такие методы исследования, как систематический анализ, периодизация, проблемно-хронологическая, а также топонимическая стратификация топонимов, генетический анализ, используемые в исторических исследованиях.

В результате исследования были проанализированы роль травелогов как общего источника и теоретические и практические аспекты тюркских этнотопонимов в изучении этнической истории узбекских ханств.

Ключевые слова: тюркские народы, этноним, этнотопоним, этногидроним, относительная негативность, ён, дам.

Annotation: This article classifies and analyzes the ethnotoponyms associated with the names of the Turkic peoples living in the region, in the "travel books" created on the basis of travel memories of Russian and foreign tourists and official representatives of states who visited Central Asia in the 19th century. As you know, ethnotoponyms are toponyms related to the "ethnos", which represent the composition of the population of a certain area and the socio-economic processes associated with them, as well as traditions and values.

A comparative analysis of ethnotoponyms on the basis of certain sources shows the ethnic composition of the population of the corresponding area, demographic processes and factors influencing them. At the moment, the consideration of such toponyms from the standpoint of source studies and historiography, the study of toponyms is one of the topical issues of historical toponymy. From this point of view, the study of toponymy associated with Turkic ethnonyms in the khanates based on travel stories of Russian and foreign tourists who visited the Central Asian khanates, which is planned to be revealed in this article, serves to fill in some gaps that are not recorded in local sources.

The main purpose of the study is to recognize the original meaning of toponyms related to the Turkic ethnonym in the travelogues of this period when studying the ethnic composition of the population of the Bukhara Emirate, the Khiva and Kokan khanates, to determine their territorial affiliation and their place in socio-economic life.

The article uses such research methods as systematic analysis, periodization, problem-chronological, as well as toponymic stratification of toponyms, genetic analysis used in historical research.

As a result of the study, the role of travelogues as a common source and the theoretical and practical aspects of Turkic ethnotoponyms in the study of the ethnic history of the Uzbek khanates were analyzed.

Keywords: Turkic peoples, ethnonym, ethnotoponym, ethnohydronym, relative negativity, yop, dam.

Kirish: XIX asrga mansub mahalliy va xorij manbalarida O'rta Osiyodagi 3 ta xonlik aholisining etnik tarkibi haqida ma'lumot berilar ekan, aholining asosiy qismini o'zbeklar, shuningdek, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg'izlar, qisman, uyg'urlar, arablar, hindlar, yahudiylar tashkil qilishi qayd etiladi. Ushbu etnoslar turli davrlarda hududga kirib kelgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Shuningdek, o'zbek xonliklarining toponimik qatlamida yuqorida nomi zikr etilgan asosan turkiy etnik birlik va ularning tarkibidagi urug'lar bilan bog'liq etnotoponimlar qayd etilganki, bu jarayon ham ularning mintaqadagi etnogenetik jarayonlarda o'ziga xos o'ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

Turkiy etnonim bilan bog'liq joy nomlari XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari har birining toponimik qatlamida yetarlicha qayd etilgan bo'lib, ular aholining to'g'ridan-to'g'ri etnik tarkibiga ishora qiluvchi etnotoponimik identikator hisoblanadi. Etnotoponimlarning ushbu shakli aksariyat holda, toponimist olim V.A.Nikonov tomonidan ishlab chiqilgan nisbiy negativlik qonuniyati asosida paydo bo'lib, etnik jihatdan turli millat va xalq birga yashaydigan hududlarda kuzatiladi. Xususan, bunday hududlar sirasiga o'zbek, qoraqalpoq, turkmanlar birga yashaydigan Xiva xonligi hududlari, o'zbek va tojiklar yashaydigan Buxoro va Qo'qon xonliklariga tegishli, Surxon-Sherobod, Zarafshon, Farg'ona vodiysi, o'zbek, qozoq, qirg'izlar yashaydigan Qo'qon xonligi shimoli, shimoli-sharqiy, xususan, Toshkent vohasi hududlari, shuningdek, mintaqaning turli hududlarida mahalliy aholi bilan yonma-yon yashagan



arablar, forslar, yahudiylar, afg'onlar va boshqa kam sonli etnoslarga tegishli aholi maskanlari kirib, ularning nomi mahalliy til muhitidan kelib chiqib turli xil geografik obyektlarga berilgan.

Tadqiqot obyekti va metodlari. Ushbu maqolada XIX asrda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus va xorij sayyohlarining safar xotiralari, kundaliklari va ular yuzasidan nashr qilingan asarlar umumiy nom bilan "safarnomalar" deb, tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi hamda ulardagi turkiy xalqlar nomi bilan bog'liq etnotoponimlar tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu maqolada tarixiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan tarixiy-xronologik va qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. O'zbek xonliklarining asosiy aholisi o'zbek urug'lari ekanini hisobga olgan holda, mintaqada "o'zbek" komponentini o'z ichiga olgan etnotoponimlar (*O'zbekon*, *O'zbeklar* va h.k.) kam uchrashi tabiiy holdir. Lekin, yuqoridagi o'zbek va tojik aholi aralash yashagan hududlarda esa bir qancha ushbu nom bilan bog'liq etnotoponimlar mavjud bo'lgan. N.F.Sityankovskiyning tadqiqotlariga ko'ra, Buxoro amirligi Zarafshon bekligidagi ayrim amlokdorliklarida *O'zbekon* nomli qishloqlar mavjudligi aytib o'tiladi. Xususan, birgina Komad amlokdorligida *O'zbekon* nomli 12 ta qishloq, shuningdek, *O'zbek*, *Raboti O'zbek*, *O'zbek saraf*, *yuqori O'zbekon*, *qo'yi O'zbekon*, *Yuzbekon* nomli qishloq nomlari hamda *Yuzbekon*, *Raboti O'zbek*, *O'zbek saraf* ariq nomlari, ya'ni etnogidronimlar qayd etilgan¹.

Xiva xonligida o'zbek etnonimi bilan bog'liq joy nomlari ko'proq kanal va ariq nomlari ichida uchraydi. Xususan, O'rta Osiyo geografik nomlari bilan shug'ullangan sharqshunos olim H.Vamberining asarida qayd etilishicha, turkmanlarning *yovmut* urug'i Ko'hna Urganchdan G'ozovotgacha bo'lgan *Qorayilg'in*, *O'zbekyop*, *Ko'ktcheg*, *Badrkend* va *Madamin* kabi tumanlarda yashagan². Ko'rishimiz mumkinki, *O'zbekyop* toponimi turkman aholi bilan o'zbek aholi yonma-yon yashagan hududda mavjud bo'lgan. Shuningdek, ushbu nom tarkibidagi *-yop* so'zi kichikroq ariq ma'nosini bildirsa-da, yuqoridagi manbada tuman nomi o'rnida kelmoqda. Ya'ni, dastlab etnogidronim sifatida paydo bo'lgan joy nomi keyinchalik, aholining o'sishi natijasida nisbatan kattaroq aholi maskani nomiga ko'chib o'tishini ko'rishimiz mumkin.

Xiva xonligida alohida etnik birlik sifatida *turkman* xalqi muhim o'rin tutgan bo'lib, Xiva va turkman yerlari o'zaro tutash bo'lganligi sababli, har ikkala hudud aholisi qadimdan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va etnik jihatdan o'zaro yaqin aloqada bo'lib kelgan. Turkmanlar Xiva xonligida o'zbek urug'laridan keyingi o'rinda turuvchi yirik etnik qatlam bo'lgani uchun *Turkman* etnonimi bilan bog'liq etnotoponimlar asosan, Buxoro va Qo'qon xonliklarida uchraydi. Tadqiq etilayotgan davrdagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, amirlikning markaziy hududlarida bu kabi etnotoponimlar ko'proq uchraydi. Xususan, A.P.Xoroshxinning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Zarafshon bekligining o'rta qismida Novqa arig'idan sug'orilgan 60 qishloqning nomi keltirilib, ularning ichida *Turkman* nomli qishloq uchraydi³. Shuningdek, Xatirchi bekligida 3 ta, Ziyovuddin amlokdorligida ham bitta *Turkman* nomli qishloq nomi tadqiqotlarda qayd etilgan⁴. Turkmanlar bilan bog'liq etnotoponimlar amirlikda turlicha shaklda uchraydi. Masalan, ham etnogidronim, ham qishloq nomi sifatida Karmana bekligida *Turkmanariq* nomi bilan, Komad amlokdorligida *Turkmano'g'li* nomi bilan atalgan etnotoponimlar Buxoro amirligi etnotoponimik qatlamida mavjud bo'lgan.

Bizga ma'lumki, qoraqalpoqlar o'zbek xonliklari aholisining bir qismini tashkil etib, ular o'zbeklarga hududiy, etnik va madaniy jihatdan eng yaqin turkiy etnik komponentlardan biri

¹ Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана//Известия Туркестанского отдела Императорского Русского Географического общества. Том I, 1899. Выпуск II, –Ташкенть, 1900. –С. 241.

² Vambéry A. Travels in Central Asia. -London, 1864. –P. 348.

³ Хорошхин А.П. Сборникъ статей касающихся до Туркестанского края. -Спб., 1876. –С. 247.

⁴ Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части... –С. 205.

hisoblanadi. Safarnomalarda qoraqalpoqlar etnonimlari va etnotoponimlari haqida yetarlicha ma'lumotlar uchrab, ular asosan Xiva, shuningdek, Buxoro va Qo'qon xonliklarida mavjudligi qayd etib o'tilgan. G.I.Danilevskiyning qayd etishicha, Xiva xonligidagi qoraqalpoqlar xonlikning shimoliy qismida, Orolning janubiy va janubiy-g'arbiy sohillarida, qo'yi Amudaryoda, shuningdek, *Qo'ng'iroq*, *Xo'jayli*, *Mang'it* hamda *Qipchoq* shaharlari atroflarida qo'chib yurishgan¹. E.K.Meyendorfnings safarnomasida Buxoro amirligida qoraqalpoqlar asosan qirg'izlar bilan birga tilga olinib, ularning soni taxminan 6000 ta bo'lib, Buxoro shahrining shimoliy-sharqiy hududlarida, Qarshi atroflarida va Miyonqolning shimoliy qismlarida ko'chib yurganligini qayd etib o'tadi². V.N.Xanikovning Buxoro amirligiga tashrifi asosida yaratilgan safarnomasida qoraqalpoqlar amirlik hududlarida asosan Jizzax va O'ratepa hududlarida ko'chib yurgan³. A.P.Xoroshxin esa Zarafshon okrugining asosan tojik aholi yashaydigan Shavdar, So'g'd, Sheroz, Chashma, Jom tumanlarida qoraqalpoqlar yashaganligi aytib o'tadi⁴. Xususan, *Qoraqalpoq* nomli qishloq amirlikning Karmana bekligida 5ta, Xatirchi bekligida 2 ta, Ziyovuddin va Pirmast amlokдорligida bittadan, shuningdek, *Qoraqalpoq* ariq nomi etnogidronim sifatida ham Karmana bekligida uchrashi qayd etilgan⁵. Qo'qon xonligida ham *Qoraqalpoq* nomli etnotoponim mavjudligi manbalarda qayd etilgan bo'lib, 1812 yilda xonlikka tashrif burgan Ost-Indiya kompaniyasining Hindistondan O'rta Osiyoga kelgan vakili Mir Izzatullohning safar xotiralarida, shu nomdagi aholi maskanidan o'tganligini muallif yozib o'tadi⁶. Asosan, Xiva xonligining markaziy va shimoliy hududlarida yashagan qoraqalpoqlar va ular bilan bog'liq etnotoponimlarning Buxoro va Qo'qon xonliklari hududlarida ham uchrashi xonliklar aholisi orasidagi migrasion jarayonlarga bog'liqdir. Xususan, XVIII asrda Sirdaryoning O'rta oqimida yashab turgan qoraqalpoqlarning katta bir guruhi ko'chmanchi qozoqlarning hujumi natijasida Farg'ona vodiysiga ko'chib o'tib, Sirdaryo va Qoradaryo qirg'oqlaridagi hududlarga joylashadi va Andijondan Qo'qongacha bo'lgan hududlarda o'troqlashib, o'zlarining qator qishloqlarini barpo etishadi⁷. Bundan ko'rinadiki, vodiydagi qoraqalpoq etnonimi va ular tarkibidagi boshqa urug'lar nomi bilan bog'liq etnotoponimlarning aksariyat qismi ushbu migrasion jarayonlar natijasida paydo bo'lganligi diqqatga sazovordir.

Qoraqalpoq etnonim sifatida esa, V.N.Xanikovning safarnomasida sanab o'tilgan 97 ta o'zbek urug'lari ichida alohida mustaqil urug' sifatida qayd etilmasa-da, ushbu ro'yxatdagi *qo'ng'iroq* urug'i, *oyinli* shohobchasidagi 9 ta to'pdan birining nomi *qorqalpoq* deb atalganligini ko'rishimiz mumkin⁸. Shuningdek, A.P.Xoroshxin tomonidan sanab o'tilgan 92 ta o'zbek urug'i tarkibida to'qqizinchi tartibda alohida mustaqil qoraqalpoq urug'ining nomi qayd etiladi⁹.

XIX asrda o'zbek xonliklarining har birida qozoqlar va ularning ko'plab urug'lari istiqomat qilib, qozoq etnonimi bilan bog'liq joy nomlari asosan qozoq juzlarining o'zbek xonliklariga chegara hududlarida emas, balki, xonliklar hududining ichki qismlarida ko'proq chorvador qabilalar yashaydigan qishloq va ovullarda uchrashi ko'proq kuzatiladi. Xususan, Qo'qon xonligi Andijon

¹ Данилевский И. Описание Хивинского ханства. -Санкт-Петербургъ, 1851.-С. 92.

² Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. -С. 104.

³ Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 286. -С. 92.

⁴ Хорошхин А.П. Сборникъ статей ...-С. 515.

⁵ Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части... –С. 186.

⁶ Meer Izzat-oolloh. Travels in Central Asia by Meer Izzat-oolloh in the years 1812-1813.-Calcutta: Council House street, 1872. -P. 55.

⁷ Zokirov B.I. XIX asr Qo'qon xonligi etnotoponimlarining milliy etnik tarkibi//Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. –Тошкент, 2022. -Б. 215-218.

⁸ Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства...-С. 59.

⁹ Хорошхин А.П. Сборникъ статей ...-С. 511.

bekligida *Qozoqovul*, Qo'qon atrofida esa *Qozoqqo'rg'on*, shuningdek, Buxoro amirligi G'ijduvon amlokdorligida *Qozoqrabot* nomli qishloq va ariq nomi manbalarda qayd etiladi¹. Xiva xonligida asosan, Urganch, Xo'jayli, Qo'ng'iro't shaharlarida istiqomat qilib, xonlikda umumiy hisobda 17610 yashaganligi qayd etiladi². Xonlikda qozoqlarning kichik juz mansub, *alim uli*, *boy uli*, *jeti uli* kabi urug'lari yashab, o'z navbatida ular ham bir qator ichki shohobchalarga bo'lingan³. XX asr boshida Zarafshon vohasining Shofirkon, Romiton, G'ijduvon, shuningdek, Navoiy viloyatining Konimex va Nurota, Samarqand viloyatining Payariq tumanlarida o'zlarining ovul va qishloqlariga ega bo'lgan⁴. Shuningdek, *Qozoqovul* – Ishtixon va Jomboy tumanlarida, *Qozoqxo'ja* – Payariq, *Maydaqozoq*, *Qozoqoldi* – Narpay, *Qozoqota* – Ishtixon, *Qozoqqishloq* – Pastdarg'om kabi etnotoponimlarning mavjudligi qozoqlarning xonliklarning markaziy tumanlarida ko'pchilikni tashkil etganligini bildiradi⁵. Lekin, mintaqadagi barcha qozoq etnonimi bilan bog'liq joy nomlari qozoqlar bilan bog'lash doim ham to'g'ri bo'lmaydi. Nafaqat, qozoq, balki, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq etnonimi bilan bog'liq joy nomlari ba'zan o'zbek urug'lari yashagan hududda ham uchraydi. Bunga birinchidan, etnotoponim shakllantiruvchi *-tepa*, *-qo'rg'on*, *-ovul*, *-qo'm*, *-rabot*, *-soy*, *-ariq*, kabi topoformantlarning, shuningdek, *qo'ng'iro't*, *nayman*, *qipchoq*, *tabin*, *tama*, *olchin*, *mang'it* kabi urug'larning ham o'zbeklar ham qoraqalpoq, qozoqlarda uchrashini misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, qo'plab manbalarda keltirilgan "92 o'zbek urug'i" ro'yxatida ham *qozoq* nomli urug'ning ham uchrashini ushbu etnonim bilan bog'liq joy nomlarining har doim ham qozoqlarga yoki o'zbeklarga aloqador xulosa chiqarishga imkon bermaydi⁶. Shuningdek, mang'itlar tarkibida *qozoq* nomli urug' tarmog'i yashab, Qarshi tumanida ushbu urug' tarmog'iga tegishli *Qozoqovul*, *Qozoq* nomli joy nomlari uchraydi⁷.

O'zbek xonliklari toponimik qatlamidagi *qirg'iz* etnonimi bilan bog'liq joy nomlari ham xuddi yuqoridagi qozoq etnonimi kabi turli toponimik obyektlarni nomlab kelishi, shuningdek, etnotoponimik formantlari jihatdan yagona umumiylikka ega bo'lib, ko'rsatilgan davrga oid manbalarda qayd etilishicha, asosan, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida ko'proq uchraydi. Xususan, amirlikdagi Xatirchi bekligida Toshariqning o'ng sohilida *Dam-i qirg'iz* nomli ariq, shuningdek, shu ariqdan suv oladigan *Qirg'iz* nomli qishloq nomi qayd etiladi⁸. Xuddi shu beklilikning Ziyovuddin amlokdorligi Narpay arig'ining o'ng sohilida ham 7 ta *Qirg'iz* va bitta *Qirg'izsaroy* nomli qishloq nomi, *Qirg'iz* nomi Karmana bekligida 3 ta qishloq nomida va bitta ariq nomida, G'ijduvon amlokdorligida 3 ta qishloq nomida va 2 ta ariq nomida, *Qirg'izon* nomi esa Komad hamda Vaganzi amlokdorligida uchraydi⁹. Yuqorida ko'rganimizdek, qozoq etnonimidan farqli o'zlaroq Buxoro amirligidagi qirg'iz etnonimi bilan bog'liq joy nomlarini qirg'izlarga yoki o'zbeklarga tegishli ekanligi nisbatan osonroq ajratib olish mumkin. Xususan, yuqorida ko'rganimizdek, *Dam-i qirg'iz*, *Qirg'izon*

¹ Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части... –С. 221.

² Шалекенов У.Х. Казахи низовьев Амударьи. –Ташкент, 1966. –С. 63.

³ Рустамов М. Ўрта Осиё Қозоғистон халқлари этнографияси. –Самарқанд, 1993. –Б. 25.

⁴ Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). Ташкент: Muharrir nashriyoti, 2018. - С. 73.

⁵ Qorayev S. Toponimika. – Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. –Б. 81-82.

⁶ Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатийа» ... – С. 98-133; Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о термине «92 узбекских племени» в контексте исторических связей тюркских народов ... – С. 143-147; Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы...–С. 138, 156.

⁷ Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амирлиги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми). -дисс... тар. фан. ном. –Тошкент, 2008. –Б. 28-29.

⁸ Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части... -С. 186.

⁹ Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части... -С. 235.

kabi etnotoponimlar tarkibidagi topoformantlar ko'proq Buxoro amirligi joy nomlariga xos bo'lib, ular bilan bog'liq etnotoponimlar hududda yetarlicha uchraydi. Shundan kelib chiqib, *Dam-i qirg'iz*, *Qirg'izon* etnotoponimlari nisbiy negativlik qonuniyati asosida paydo bo'lgan va etnik jihatdan qirg'iz xalqiga aloqador joy nomi deb hisoblash mumkin. (B.Z.) Ya'ni, ushbu qonuniyat asosida paydo bo'lgan joy nomlarining o'ziga xosligi shundaki, etnotoponim nisbatan kam sonli etnik birlikka tegishli bo'lib, uning nomi o'zlari tomonidan emas, asosan unga qo'shni boshqa xalq yoki urug' tomonidan beriladi va ular nom berishda, albatta, mahalliy til hamda shevaga xos so'zdan foydalanadi. Natijada, boshqalar tomonidan atalishiga asoslangan joy nomi o'zgaras, turg'un terminga aylanib to iste'moldan chiqquncha yoki etnik birlik boshqa hududga ko'chguncha muomalada bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, o'zbeklardan boshqa turkiy xalqlarga tegishli etnotoponimlarning tagida yotgan etnonimning aynan qaysi xalqqa tegishli ekanligini aniqlashda, mahalliy shevaga xos so'zlar va toponimik **format** hamda indikatorlarga murojaat qilish ham yaxshi samara berishi mumkin.

Buxoro amirligidan farqli ravishda, Qo'qon xonligida *qirg'iz* etnonimi asosida paydo bo'lgan joy nomlari toponimik pozitivlik qonuniyati asosida shakllangan. Sababi, Qo'qon xonligi sharqiy chegaralari qirg'iz yerlariga bevosita tutashgan bo'lib, qirg'izlarning butun xonlik bo'ylab ko'chib yurishi ular bilan bog'liq etnotoponimlarning ham butun xonlik hududi bo'ylab tarqalishiga olib kelgan. Xususan, *Qirg'iz*, *Qirg'izqishloq*, *Qirg'iz Bo'riqo'm*, *Qirg'izovul*, *Qirg'iz-Qipchoq*, *Qirg'izobod*, *Qirg'izqo'rg'on*, *Qirg'izota* kabi etnotoponimlar xonlikdagi Andijon, Marg'ilon, O'sh, Jalolobod, Namangan, Novqat, Aravon kabi bekliklar hamda ular tasarrufidagi ko'plab tumanlarda qayd etilgan¹. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, ko'plab rus va xorij sayyohlarining asarlarida qirg'izlarni qipchoqlar yoki qozoqlar bilan adashtirish holatlari kuzatiladi. Xususan, rus sayyohi G.I.Danilevskiy o'zining kundaliklarida, Xiva xonligidagi qozoqlarni "*qirg'iz*" yoki "*qirg'izlar*" deb qayd etib, ulardan o'zbek xonliklarida *adat*, *chiklin* va *tobin* urug'lari keng tarqalganligi aytib o'tadi². Qozoq va qirg'izlarni adashtirilishi birinchidan, ularning asosan butun xonlik bo'ylab ko'chib yurganligi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan esa, ularning antropologik jihatdan bir-biri deyarli o'xshash ekanligi bilan izohlash mumkin.

Mintaqada tojik etnosi asosan Buxoro va Qo'qon xonligida istiqomat qilgan. Boshqa shu turdagi etnotoponimlar ham asosan o'zbek aholi bilan yonma-yon yashagan qishloqlarda ko'proq uchrab, turli hil joy nomlarini atab kelgan. Xususan, *Tojik* nomli 4 ta qishloq Buxoro amirligi Xatirchi bekligida, *Tojikli* va *Tojikon* nomli 4 ta qishloq Komad amlokdorligida va huddi shu nomdagi 2 ta qishloq Vaganzi amlokdorligida, *Tojiklar* bitta qishloq Pirmast amlokdorligida mavjudligi qayd etilgan³. Shuningdek, Qo'qon xonligining markaziy va sharqiy hududlarida, mahalliy o'zbek va qirg'izlar yashaydigan hududlarda tojik nomi bilan bog'liq etnotoponimlar uchraydi. Xususan, *Tojik*, *Tojikqishloq*, *Ovul Tojik*, *Katta Tojik*, *O'rta Tojik*, *Kichik Tojik*, *Tojik mahalla* kabi qishloq nomlari Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Quva, O'sh, Navqat kabi beklik hamda tumanlarning toponimik qatlamida mavjudligi aniqlandi⁴.

¹ Zokirov B.I. XIX asr Qo'qon xonligi etnotoponimlarining milliy etnik tarkibi//Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. –Тошкент, 2022. - Б. 215-218.

² Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства...-С. 180..

³ Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части... –С. 268.

⁴ Zokirov B.I. XIX asr Qo'qon xonligi etnotoponimlarining milliy etnik tarkibi//Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. –Тошкент, 2022. - Б. 215-218.

Xiva xonligida tojik aholi nihoyatda kam sonli bo'lib, ushbu davrdagi ko'plab mahalliy va xorijiy manbalarda Xiva xonligida tojik aholi to'g'risida ma'lumot nihoyatda kam uchraydi. Lekin, Xivaga tashrif buyurgan amerikalik sayyoh G.Lansdeylning qayd etishicha, Xivada 15 dan ziyod tojik savdogari yashagan¹. Shuningdek, ushbu muallif o'zining safarnomasida, Toshhovuzdan Qo'hna Urganchgacha bo'lgan yo'llarni ta'riflar ekan, Shohmurod kanali atrofida asosan turkman urug'lari yashaydigan hududda *Tojik* nomli bog'dan o'tganligini ham qo'shimcha qiladi. Ko'rib turganimizdek, etnotoponim sifatida namoyon bo'luvchi joy nomlari hududdagi kam sonli aholi nomiga asos bo'lganda ularning nomi joy nomiga ko'chishi o'ziga xos xarakterli bo'lib, ularda etnik o'ziga xoslik nisbatan yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

XIX asr O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus va xorij sayyohlariga tegishli safarnomalarda xonliklardagi xalq va millat nomi bilan bog'liq etnotoponimlar ichida eng ko'p uchraydigan joy nomlaridan biri *arab* etnonimi bilan bog'liq joy nomlari hisoblanadi. Mintaqadagi arablarning tarixini o'rgangan olim S.L.Volinning qayd etishicha, O'rta Osiyoda arablar bilan bog'liq qishloqlarning qanchalik keng hududga yoyilganligini anglash uchun mintaqaga oid xaritaga nazar tashlashning o'zi yetarli bo'ladi. Sababi mintaqaning turli etnik xaritalarda, shuningdek, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida *Arab*, *Arabon*, *Arabxona* nomlari bilan bog'liq ko'plab etnotoponimlar uchraydi². Xususan, XIX asrning 20 yillarida Buxoroga tashrif buyurgan rus sayyohi E.K.Meyendorfnig fikricha, amirlikdagi arablarning soni, 50 ming atrofida bo'lib, ular azaldan o'troq, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi shaklda, asosan, Qarshi va Termiz atroflarida ko'chib yurishgan³. XIX asrning 60 yillariga kelib, amirlikdagi arablarning soni sezilarli darajada ko'payadi. Zero, aynan shu davrda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan venger sharqshunosi X.Vamberining safarnomasida, arablar soni 60 mingta ko'rsatilib, ularning eng keng tarqalgan hududlari sifatida Vardonze va Vobkent shaharlari keltirib o'tiladi⁴. XIX asrning 70-80 yillarida Zarafshon okrugiga tashrif buyurgan rus ma'murlaridan A.D.Grebenkinning qayd etishicha, hududda 2000 ta arab oilasi, ya'ni, 10 ming arab aholisi mavjud bo'lib, asosan Kattaqo'rg'on va Zirabuloq atrofida istiqomat qilgan⁵. Shuningdek, L.N.Sobolevning Zarafshon okrugining aholisi tarkibini o'rganishi jarayonida arablarning asosiy qismi Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlarida yashaganligini aytib o'tadi. Xususan, uning qo'shimcha qilishicha, Samarqand bo'limining Angor tumanida 1200 ta arab xonadoni, Afrikent tumanida 245 ta arab xonadoni, Yangiko'rg'on tumanida 45 ta arab xonadoni, Kattako'rg'on tumanida esa 145 ta arab xonadoni mavjud⁶. Ko'rib turganimizdek, safarnomalarda Buxoro amirlikdagi arablarning soni bo'yicha turli xil ma'lumotlar uchraydi. Bunga sabab sifatida arablarning fors-tojik aholi bilan til jihatdan o'zaro yaqinligi va antropologik xususiyatlarini o'zaro o'xshashligi bilan izohlanadi⁷. Sababi, arablarning asosiy qismi o'zaro arab tilida gaplashsa, mahalliy aholi bilan esa asosan fors-tojik tilida so'zlashishgan. Xususan, amirlikdagi Qarshi bekligida arablarning o'zining identikligini saqlash kuchli bo'lib, ushbu beklikda arablar nihoyatda zich yashab, arab etnonimidan tashqari o'zlarining turli

¹ Henry Lansdell. Russian Central Asia...Vol. II. -P. 269.

² Волин С.Л. К истории среднеазиатских арабов // Труды второй сессии ассоциации арабистов. 19 – 23 октябрь 1937 / под ред. и с предисл. акад. И.Ю. Крачковского // Труды Института востоковедения. Вып. XXXVI. – М.- Л., 1941. –С. 112.

³ Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П. И. Демезона и И. В. Виткевича). – М.: Наука, 1983. –С. 104-106.

⁴ Vambery A. Travels in Central Asia. –London, 1864. –P. 370.

⁵ Волин С.Л. К истории среднеазиатских арабов // Труды второй сессии ассоциации арабистов. 19 – 23 октябрь 1937 / под ред. и с предисл. акад. И.Ю. Крачковского // Труды Института востоковедения. Вып. XXXVI. – М.- Л., 1941. –С. 112.

⁶ Соболев Л.Н. Географическая и статическая сведения о Зерафшанскомъ округъ. –С.-Петербургъ, 1874. –С. 145.

⁷ Зокиров Б.И. Рус ва хориж сайёхларининг сафарномаларида Бухоро амирлигидаги араблар билан боғлиқ этнотопонимлар (XIX аср манбалари мисолида)/ Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. –Тошкент, 2021. -Б. 313-322.



urug'lariga oid *Jeynov, Arvona, Andxuy, Kattapoy* kabi etnotoponimlar hozirgi kungacha saqlanib qolgan¹.

Mintaqadagi arab etnonimi bilan bog'liq joy nomlarini tadqiq etishda Rus Geografiya jamiyati a'zosi N.F.Sityankovskiy rahbarligida 1896-yildan boshlab Buxoro amirligi bo'ylab aholi manzillarini tadqiq etish natijasida to'plagan ma'lumotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi². Xususan, u boshchiligida tuzilgan Zarafshon vodiysidagi 2800 ta aholi manzillaridan 78 tasi to'g'ridan-to'g'ri arab nomi bilan bog'liq bo'lib, ulardan 12 tasi *Arab*, 4 tasi *Arablar*, 14 tasi *Arabon*, 40 tasi *Arabxona*, shuningdek, *Arabtepa, Milkiarab, Chilong'u arab, Qo'ldosharab*, kabi nom bilan uchraydi³. Buxoro amirligiga qarashli Qarshi viloyatida eng ko'p arablar istiqomat qilib, ushbu viloyatda ularning nomi bilan bog'liq *Arabxona, Arabovul, Arabto'da, Arabto'por* kabi joy nomlari uchraydi⁴. Yuqorida nomi zikr etilgan etnotoponim hammasini arablar bilan bog'lash doim ham muammoga to'g'ri yondashuv hisoblanmaydi. Sababi, arablarning O'rta Osiyoga kirib kelgan davridan boshlab, to XIX asming oxiri XX boshlarigacha mahalliy aholiga singish jarayoni doimiy jarayon hisoblangan. Xususan, "92 o'zbek urug'i"ning deyarli hammasida arablar shu urug'lardan biri sifatida ko'rsatiladi. Mintaqaning arablar zich yashaydigan va arab urug'lari joy nomlarigacha etnotoponim shaklida ko'chgan hududlarida arablar etnografik guruh sifatida o'zlarning tili, urf-odatini saqlab qolish kuchli bo'lgan bo'lsa, qolgan hududlarda ularning mahalliy aholi tarkibiga singib ketish jarayoni nisbatan tezroq bo'lgan.

Xulosa o'rinda shuni aytib o'tish mumkinki, XIX asrga doir rus va xorij manbalariga ko'ra mintaqadagi turkiy etnonimlar bilan bog'liq joy nomlarining aksariyat qismi xonliklarning chegaradosh mintaqalarida, ikki va undan ortiq xalq o'zaro yonma-yon yashagan aholi maskanlarida paydo bo'lgan. *O'zbek, qoraqalpoq, turkman, qirg'iz, qozoq, uyg'ur* etnonimlari yuqoridagi ko'rsatilgan hududlardagi turli toponimik obyektlarni nomlab kelgan bo'lib, tegishli toponimni qolganlaridan ajratish hamda uning nomiga asos bo'lgan etnik birlikka aloqadorligini namoyon qiladi. Ba'zan *O'zbek, qoraqalpoq, turkman, qirg'iz, qozoq, uyg'ur* kabi etnonimlar "92 o'zbek urug' urug'lari" tarkibida kelsa-da, qachonlardir o'zbek xalqiga mansub biron-bir qabila yoki yirikroq urug' tarkibiga kirishdan oldin etnik jihatdan o'ziga xosligini saqlaganligi uning nomi orqali ham ma'lum bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о термине «92 узбекских племени» в контексте исторических связей тюркских народов // Global-Turk. – No. 4. – Astana: International Turkic Academy, 2014. – С. 137-147.
2. Волин С.Л. К истории среднеазиатских арабов // Труды второй сессии ассоциации арабистов. 19 – 23 октябрь 1937 / под ред. и с предисл. акад. И.Ю. Крачковского // Труды Института востоковедения. Вып. XXXVI. – М.- Л., 1941. –112 с.
3. Данилевский И. Описание Хивинского ханства. -Санкт-Петербургъ, 1851. –115 с.
4. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П. И. Демезона и И. В. Виткевича). – М.: Наука, 1983. –154 с.
5. Зокиров Б.И. Рус ва хориж сайёҳларининг сафарномаларида Бухоро амирлигидаги араблар билан боғлиқ этнотопонимлар (XIX аср манбалари мисолида)/ Тарихий

¹ Искандаров Ш. Ўзбекистон араблари: анъаналар ва трансформацион жараёнлар. . –Тошкент: Yangi nashr, 2017. -Б. 62.

² Ситянкoвский Н.Ф. Заметки о Бухарской части...–С. 120-313.

³ Қораев С. Этнонимика. –Т: Ўзбекистон, 1979. –С. 12-13.

⁴ Вяткин В.Л. Каршинский округ организация в нем войска и события в период 1215-1217 (1800-1803) годов//Известия среднеазиатского отделения Российского географического общества. Вып. VIII, - Т., 1928. –С. 4-26.



- манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. –Тошкент, 2021. -Б. 313-322.
6. Zokirov B.I. XIX asr Qo‘qon xonligi etnotoponimlarining milliy etnik tarkibi//Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. –Тошкент, 2022. -Б. 215-218.
 7. Искандаров Ш. Ўзбекистон араблари: анъаналар ва трансформацион жараёнлар.– Тошкент: Yangi nashr, 2017. –208 б.
 8. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. –183 с.
 9. Meer Izzat-oolloh. Travels in Central Asia by Meer Izzat-oolloh in the years 1812-1813. - Calcutta: Council House street, 1872. –109 p.
 10. Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана//Известия Туркестанского отдела Императорского Русского Географического общества. Том I, 1899. Выпуск II, –Ташкентъ, 1900. –С. 120-313.
 11. Соболев Л.Н. Географическая и статическая сведения о Зерафшанскомъ округъ. –С.-Петербургъ, 1874. – 561 с.
 12. Султанов т.и. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатийа» // Средняя Азия в древности и средневековье (история и кулыура). –Москва, 1977). – С. 98-133;
 13. Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амирлиги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми). -дисс... тар. фан. ном. –Тошкент, 2008. –169 б.
 14. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). Ташкент: Muhammadiyot, 2018. –216 с.
 15. Vambery A. Travels in Central Asia. -London, 1864. –443 p.
 16. Шалекенов У.Х. Казахи низовьев Амударьи. –Ташкент, 1966. –63 с.
 17. Қораев С. Этнонимика. –Т: Ўзбекистон, 1979. – 24 с.
 18. Qorayev S. Toponimika. – Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.
 19. Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – 286 с.
 20. Henry Lansdell. Russian Central Asia (including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv). Vol. 1. – London. 1885. – 687 p.
 21. Хорошхин А.П. Сборникъ статей касающихся до Туркестанского края. -Спб., 1876. – 533 с.

